

MENGNOR OLLOMUROD SHE'RIYATIDA TAKRIR SAN'ATINING  
QO'LLANILISHI

Shaxnoza Norqulova

Xurshida Karshiyeva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20518177>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Mengnor Ollomurod she'riyatida takrir san'atining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir ijodida radifli, lafziy, anaforik hamda tovush va urg'uga asoslangan takrirlarning qo'llanishi misollar orqali yoritilib, ularning she'r ohangdorligi, emotsional ta'sirchanligi va g'oyaviy mazmuni kuchaytirishdagi o'rni ochib beriladi.

Tadqiqot davomida takrirlarning lirik qahramon ruhiyati va xalqona poetik tafakkurni ifodalashdagi ahamiyati ilmiy asosda izohlanadi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности искусства повтора в поэзии Менгнор Олломурад. На примерах раскрываются особенности использования радифного, лексического и анафорического повторов, а также повторов, основанных на звуковой выразительности и интонации.

Особое внимание уделяется их роли в усилении музыкальности стихотворения, эмоционального воздействия и идейного содержания. В исследовании также рассматривается значение повторов в раскрытии внутреннего мира лирического героя и национального поэтического мышления.

**Abstract.** This article analyzes the artistic and aesthetic features of repetition in the poetry of Mengnor Ollomurod. The study examines the use of refrain repetition, lexical repetition, anaphoric repetition, and repetitions based on sound and intonation through selected poetic examples. The article highlights the role of repetition in enhancing rhythm, emotional expressiveness, and the ideological essence of poems.

Furthermore, it explores the importance of repetition in revealing the psychological state of the lyrical hero and expressing elements of folk poetic thinking.

**Kalit so'zlar:** takrir, poetik san'at, radif, anafora, badiiy tasvir, ohangdorlik, lirik qahramon, poetik uslub.

O'zbek she'riyatida badiiy tasvir vositalari orasida takrir san'ati alohida o'rin tutadi.

Takrir — muayyan so'z, ibora yoki misraning badiiy-estetik maqsad asosida qayta qo'llanishi bo'lib, u she'rning ohangdorligini kuchaytirish, emotsional ta'sirini oshirish hamda muallif g'oyasini o'quvchi qalbiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyatida takrir poetik tafakkurning muhim unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mengnor Ollomurod she'riyati ham ana shunday badiiy mukammalligi, xalqona ohang va kuchli ruhiy kechinmalari bilan ajralib turadi.

Shoir o'z ijodida takrirning turli ko'rinishlaridan — radifli takrir, lafziy takrir, anaforik takrir hamda tovush va urg'uga asoslangan takrirlardan mahorat bilan foydalanadi. Bu esa uning she'rlariga o'ziga xos ritm, musiqiylik va dramatik ta'sir baxsh etadi.

Mengnor Ollomurod she'rlarida takrir oddiy takror emas, balki lirik qahramonning ichki iztiroblari, armonlari, sog'inchi va hayot haqidagi falsafiy mushohadalarini ifodalovchi poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Takrorlanuvchi misra yoki iboralar o'quvchini she'ning ruhiy muhitiga olib kiradi, ma'no qatlamlarini chuqurlashtiradi va she'ning g'oyaviy markazini yanada ravshanlashtiradi.

**Takrir:** Mengnor Ollomurod she'riyatida takrir (so'z yoki birikmani badiiy maqsad yo'lida qayta-qayta qo'llash) san'ati ohangdorlikni kuchaytirish, his-tuyg'u ta'sirini oshirish va markaziy g'oyaga urg'u berish uchun xizmat qiladi. Shoir takrirdan foydalanganda misralarga o'zgacha bir ritm va hayajon bag'ishlaydi.

***Radifli takrir (Misra oxiridagi takror)***

Bu turdagi takrir she'ning musiqiyiligini ta'minlaydi va o'quvchini asosiy dard atrofida birlashtiradi:

Osmonlarga yetdi jonimning ohi...

Bir nokas ko'nolimni g'ajidi itday.

...Olamim alamdan nolamda yondi...

Bir nokas ko'nolimni g'ajidi itday.

Har bir bandning yakunida "Bir nokas ko'nolimni gajidi itday" misrasining aynan takrorlanishi lirik qahramonning bitmas-tuganmas g'am-alamini, o'sha nokasdan ko'rgan xo'rliigi uning xayolidan hech ketmayotganini bildiradi. Bu takrir she'ning dramatik pafosini eng yuqori nuqtada ushlab turadi.

***Lafziy takrir (So'z takrori)***

Shoir muayyan bir tushunchaning mutloqligini ko'rsatish uchun so'zni ketma-ket takrorlaydi:

*Farhodning tog'larni parchinlab, o'yib,*

*Suvlar keltirgani yolg'on de, yolg'on.*

*Majnunlik muhabbat o'tida kuyib,*

*Yongani ertak de, shaksiz, begumon.*

"Yolg'on" so'zining bir misra ichida ikki bor takrorlanishi lirik qahramonning jamiyatdagi inqirozli holatga bo'lgan achchiq kinoyasini ifodalaydi. Bu takror orqali shoir o'quvchini "Nahotki hamma narsa yolg'on bo'lsa?" degan savol ustida chuqurroq mushohada yuritishga majbur qiladi.

***Anaforik takrir (Band boshidagi takror)***

Bandlarning bir xil so'z bilan boshlanishi she'ning emotsional quvvatini oshiradi:

*Kelin keldi oy bo'lib, sen yo'q,*

*Tole toshdi soy bo'lib, sen yo'q,*

*Navo yig'lar nay bo'lib, sen yo'q...*

Garchi bu yerda so'zlar biroz farq qilsa-da, "bo'lib, sen yo'q" birikmasining har bir misra oxirida takrorlanishi (bu ham takrirning bir turi) ayriliq dardi naqadar og'irligini ko'rsatadi.

Har bir yangi misra yangi bir shodlikni (kelin, tole, navo) boshlasa-da, takrorlanuvchi "sen yo'q" jumlasini barcha quvonchni yo'qqa chiqarib, musibatning ko'lamini ko'rsatadi.

***Holatli takrir (Tovushdoshlik va urg'u)***

*It bu, deb, yo unga toshlar otardim,*

*Oh, odam qopdi-ya... jimman... netardim...*

“It” so‘zining bir necha bor takrorlanishi shoirning “itlik” va “odamiylik” tushunchalarini qarshilantirishiga xizmat qiladi. Takror orqali o‘quvchi e’tibori hayvonning tishlashi tabiiy hol ekanligiga, lekin insonning xiyonati (tishlashi) kutilmagan fojia ekanligiga qaratiladi.

Mengnor Ollomurod takrir san’atidan foydalanib, she’rning ritmik oqimini boshqaradi.

Takrirlar lirik qahramonning ruhiy “tahlika”sini yoki “iztirobli aylanasi”ni ko‘rsatishga yordam beradi.

Ayniqsa, she’rlarida radif darajasidagi takrirlar vohta baxshiyona she’riyatiga xos bo‘lgan ohangdorlikni eslatadi.